

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/29.12.2023.Ped 48.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

XOLIQOVA OYISTAXON YULDASHEVNA

**INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK
MUTAXASSISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**
(kasbiy ta'limning tibbiyot yo'nalishlari misolida)

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna

Integratsiyalashgan ta’lim muhitida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish (kasbiy ta’limning tibbiyot yo‘nalishlari misolida)..... 3

Холикова Ойистахон Юлдашевна

Совершенствование методики подготовки будущих специалистов к профессиональной деятельности в интегрированной образовательной среде (на примере медицинских направлений профессионального образования)..... 25

Kholikova Oistakhon Yuldashevna

Improving the methodology of preparing future specialists for professional activity in an integrated educational environment (in the example of medical directions of professional education)..... 49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/29.12.2023.Ped 48.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

PROFESSIONAL TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

XOLIQOVA OYISTAXON YULDASHEVNA

**INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK
MUTAXASSISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**
(kasbiy ta'limning tibbiyot yo'nalishlari misolida)

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PHD/Ped6826 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Professional ta’limni rivojlantirish institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.ipitvet.uz) da va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Karimova Nozima Nurmuxamadovna**
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponenlar: **Olimov Qahramon Tanzilovich**
pedagogika fanlari doktori, professor

Salixodjaeva Rixsi Kamilovna
tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali**

Dissertatsiya himoyasi Professional ta’limni rivojlantirish instituti huzuridagi DSc.05/29.12.2023.Ped48.01-raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “___” ___soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy. Tel.: (+998 71) 227 19 24. E-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Professional ta’limni rivojlantirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy. Tel.: (+998 71) 227 19 24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “___” _____kuni tarqatildi.

(2025 yil _____dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi)

R.X.Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., akademik

D.O.Ximmataliyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, v.v.b., p.f.d., professor

H.Sh.Qodirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda ta'limni zamonaviy talablar asosida takomillashtirib borish, xususan, tibbiy ta'lim sifatini oshirib borish ta'limning asosiy strategik vazifalaridan biri bo'lib, bunda, tibbiy ta'limni modernizatsiya qilish trayektoriyasi Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) pozitsiyasiga va u tomonidan sog'liqni saqlashga e'lon qilingan yondashuviga asoslanadi. Bugungi kunda tibbiy amaliyotning ta'lim va ilm-fan bilan integratsiyasini ta'minlash yo'li bilan ta'lim tashkilotlarida ilg'or ta'lim dasturlari, usul va texnologiyalarini joriy etishda tibbiy ta'limda asosiy e'tibor kadrlar tayyorlashning sifatiga, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishga, bilimlarni hamkorlikda egallashga qaratilishi lozim.

Dunyoda tibbiy ta'limga yangicha yondashuvlar o'rta tibbiy xodim bajaradigan funksiyalarning xilma-xilligi va bunda bilimlarni amaliyotda tizimli qo'llash, tajribalarni o'rganish bilan bog'liq. Xalqaro tajribalarda ta'lim jarayonida o'rganiladigan barcha o'quv modullari bo'yicha bilimlarini umumlashtirish va amaliyotda qo'llay olish muammosi bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar (Vilnyus Universiteti, Global Health tashkiloti) olib borilmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy buyurtmaga javob beradigan tibbiy mutaxassislarni tayyorlashning konseptual asosi klinik fanlar bo'yicha olingan bilim va kompetensiyalar, zamonaviy ta'lim texnologiyalari hamda raqamli texnologiyalarning (virtual reality, artificial intelligence) integratsiyasidan iboratdir. Tibbiy ta'limni tatbiq etishda xalqaro talablarni va tajribalarni o'rganish, ayniqsa o'quv rejalari, tashkilotlararo hamkorlik strategiyalari, harakatchanlik sxemalari, qo'shma o'quv dasturlari, amaliy tayyorgarlik ishlarini olib borish va rivojlantirish, kredit-modul o'qitish tizimini muvofiqlashtirish dolzarb sanaladi.

Mamlakatimizda kasbiy ta'lim negizida tibbiy ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida ijobiy natijalarga erishildi. Xususan, tibbiyot texnikumlarini oliy ta'lim tashkilotlari bilan integratsiyalashuvini ta'minlashga doir qator amaliy natijalarga erishildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi «Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-158-sonli Farmonida “kasbiy ta'lim sohasida zamonaviy boshqaruv tizimini joriy qilish, o'rta bo'g'in kadrlarini tayyorlash jarayonlariga manfaatdor vazirlik va idoralarni keng jalb qilish, ularning ta'lim tashkilotlari bilan hamkorligini kuchaytirish”¹ masalalari belgilandi. Biroq, tibbiyot texnikumlari o'quv dasturida ko'zda tutilgan barcha o'quv fanlari o'rta tibbiyot mutaxassisining kasbiy mehnat sohasini to'liq qamrab olganiga qaramay, ularni zamon talablari asosida to'ldirib takomillashtirib borish talab etiladi. Shunday qilib, o'quv jarayonida integratsiyalashgan muhitni hosil qilish, hamkor ta'lim tashkilotlari bilan tajriba almashish eng muhim jaryon bo'lib, bunda bilimlarni yaxlit tizimga birlashtirish amalga oshiriladi. Fanlarning o'quv elementlarini integratsiyalash

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi «Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-158-sonli Farmoni. // <https://lex.uz/ru/docs/7166588#7166720>

zamonaviy vositalar, shakllar, o'qitish usullarini yaratish, ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va o'quv jarayoniga yangi uslubiy yondashuvlarni qo'llash zaruratini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, 2024-yil 16-oktyabrdagi «Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-158-sonli, 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli farmonlari, 2020-yil 7-apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4666-sonli, 2019-yil 6-maydagi "Tibbiyot va fapmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4310-sonli, 2017-yil 5-maydagi "O'zbekiston Respublikasida tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2956-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kasbiy ta'limda mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash hamda ta'limda integratsiyaning turli xususiyatlarini ochib berishda mamlakatimiz olimlaridan R.X.Djurayev, Sh.E.Qurbonov, A.R.Xodjaboev, N.A.Muslimov, Z.K.Ismailova, Q.T.Olimov, S.Yu.Ashurova, Sh.S.Sharipov, M.B.Urazova, J.A.Xamidov, O.X.To'raqulov, D.O.Ximmataliev, O.A.Qo'ysinov, H.Sh.Kadirov, R.K.Choriev, Z.Sh.To'xtayeva, B.B.Ergashev, M.M.Xolmuxamedov, N.N.Karimovalar o'z hissalarini qo'shganlar².

Tibbiy ta'limda klinik fanlar bo'yicha bilimlarni integratsiyalashning ilmiy jihatlarini MDH olimlaridan A.P.Alekseyenko, I.V.Davidovskiy, N.K.Kubayevskiy, V.L.Kulinichenko, V.G.Levchuk, P.I.Pisklakov, N.V.Popov, P.N.Fedoseyev, M.N.Gurcan va boshqalar tomonidan ko'rib chiqilgan. Ta'lim oluvchilarni integratsiyalashgan ta'lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlash muammolari bo'yicha E.N.Volkova, Yu.N.Kulyutkin, L.M.Mitina, V.A.Slastenin, V.A.Adolf,

² Ximmataliyev D.O. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni diagnostika qilishda pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi. // Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) diss. avtoref. – T., 2018. 92 b.; Xolmuxamedov M.M. Professional ta'lim mazmunini ta'lim natijalari (Learning outcomes) asosida modernizatsiyalash. // Monografiya. – Samarqand: SamDU, 2022. 202 b.; Choriyev R.K. Kasb ta'limi mutaxassislarni dual tizimi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish. (Texnika oliy ta'lim muassasalarida "Kasb ta'limi" yo'nalishi misolida). // Ped. fan. doktopi (DSc) ... dis. – Toshkent: TIQXMMI, 2020. 245 b.; Ergashev B.B. Professional ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik strategiyasini loyihalashtirish. // Ped. fan. doktopi (DSc) ... dis. – Toshkent: NamMTI, 2022. 254 b.

E.F.Zeyer, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, A.K.Markova va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Respublikamizda tibbiy ta'limni rivojlantirish, sog'lom turmush tarzi va uning falsafiy, pedagogik masalalari bo'yicha D.D.Sharipova, S.T.Tursunov, O.R.Jamolidinova, M.F.Ziyayeva, Yu.E.Raximova, A.K.Jamalov, D.M.Kambarova, N.N.Akbarova va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar³. Tibbiy xodimlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, shaxsiy sifatlarni shakllantirish jarayoni Ye.E.Bogdanova, S.G.Vasilyeva, A.M.Vinogradova, I.V.Kashirseva, K.K.Pashayan, Ye.V.Pomazanova, T.M.Rezer, I.P.Slyusaryeva, S.V.Stasuk, I.A.Filatova va boshqalar tomonidan o'rganilgan⁴.

Yuqorida keltirib o'tilgan mualliflarning ilmiy-tadqiqot ishlarini o'rganib tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, tibbiyot yo'nalishdagi kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilarni tibbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy, konseptual va texnologik asoslari muayyan darajada o'rganilgan bo'lsa-da, kasbiy ta'limda "Texnikum-Oliy ta'lim tashkiloti (OTT)"da integratsiyalashgan ta'lim muhitida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirish masalalari o'rganilmagan hamda ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilot yoki ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Professional ta'limni rivojlantirish institutining IL-5821081323-raqamli "Dual ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish" (2023-2025-yy.) mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi integratsiyalashgan ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"Texnikum-OTT" integratsiyalashgan ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik integratsiyada jarayon, natija va didaktik tamoyillarning o'zaro bog'liqligini asoslash;

bo'lajak mutaxassislarni integratsiyalashgan ta'lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli komponentlarini integrativ-faoliyatli, kompetentli, tizimli yondashuvlarga ustuvorlik berish natijasida takomillashtirish;

tibbiyot texnikumlarida "Farmakologiya va retseptura asoslari", "Xalq tabobati" fanlari bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni va shaxsiy sifatlarni

³ Jamolov A.K. Tibbiyot kollejarida o'rta tibbiy xodimlarni tayyorlashning innovatsion texnologiyalari. // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. 54 b.; Ziyayeva M.F. Bo'lajak tibbiyot xodimining yo'nalganligini shakllantirishni boshqarishning pedagogik tizimi. // Ped. fan. nom.disser. – T., 2007. 191b.; Kambarova D.M. Professional ta'limda o'rta tibbiy xodimlarni amaliy kompetentligini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2022. 52 b.

⁴ Глухих С.И. Интегративно-деятельностный подход к подготовке медицинских сестер в непрерывном профессиональном образовании. // Дисс. ... док. пед. наук. – Москва, 2012. 210 с.; Помазанова Е. В. Подготовка будущих медицинских сестер к профессионально-этическому взаимодействию с пациентами. // Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Армавир, 2019. 23 с.; Слюсарева И.П. Формирование деонтологической компетентности в профессиональной подготовке студентов медицинского колледжа. // Автореферат. дисс. канд. пед. наук. – Саратов, 2009. 23 с.

rivojlantirishda integratsiyalashgan mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi va uslubiy ta'minotini ishlab chiqish;

o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini baholash mezonlari va darajalarini belgilash orqali bo'lajak mutaxassislarning kasbiy bilimlarini baholash usullarini takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti integratsiyalashgan ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni.

Tadqiqot predmeti tibbiyot texnikumlarida integratsiyalashgan ta'lim muhitida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmuni, metodlari, shakl va vositalari.

Tadqiqotning usullari: maqsadga erishish va qo'yilgan vazifalarni hal qilishda quyidagi metodlar majmuidan foydalanildi: psixologik-pedagogik hodisalarning tizimli tahlili, pedagogik jarayonni modellashtirish, amaliy ta'lim jarayonini kuzatish, tajriba-sinov, suhbat, tashhishlash, so'rovnomalar, natijalarni o'rganish, natijalarni matematik va statistik qayta ishlash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak mutaxassislarni "Texnikum-OTT" integratsiyalashgan ta'lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlashda integrativ bilimlarni birlashtirishning empirik (kasallik belgilarini bilish) hamda nazariy (kasalliklarning sabablari, rivojlanish mexanizmlari) darajalarini aniqlash orqali pedagogik integratsiyada jarayon, natija va didaktik tamoyillarning o'zaro bog'liqligi asoslangan;

bo'lajak mutaxassislarni integratsiyalashgan ta'lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlash modelining kollaborativ texnologiyaga asoslangan "Texnikum-OTT" o'zaro hamkorligini muvofiqlashtiruvchi tashkiliy-funksional komponentlari (maqsad, mazmun, tashkiliy-texnologik, baholash, natija) integrativ-faoliyatli, kompetentli, tizimli yondashuvlarga ustuvorlik berish natijasida takomillashtirilgan;

tibbiyot texnikumlarida "Farmakologiya va retseptura asoslari", "Xalq tabobati" fanlari bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni va shaxsiy sifatlarni uzluksiz rivojlantirishda uzluksiz kasbiy rivojlanishning an'anaviy va no'an'anaviy (pedagogik, evtagogik) usullarini qo'llash orqali integratsiyalashgan mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi va uslubiy ta'minoti ishlab chiqilgan;

"Farmakologiya va retseptura asoslari", "Xalq tabobati" fanlarini o'qitish orqali o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini baholash mezonlari va darajalarini belgilash orqali bo'lajak mutaxassislarning kasbiy bilimlarini baholash usullari (kuzatuv-tahlil, test, nostandart topshiriq) takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Integratsiyalashgan ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasidan "Hamshiralik ishi" yo'nalishida o'qitiladigan "Xalq tabobati" hamda "Farmakologiya va retseptura asoslari" o'quv fanlaridan nazariy va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanilgan.

"Texnikum-OTT" integratsiyalashgan ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan "Xalq tabobati" hamda "Farmakologiya va retseptura asoslari" fanlaridan integrativ mashg'ulotlar

ishlanmalari, ochiq dars ishlanmalari ishlab chiqilgan hamda “Xalq tabobati”, “Farmakologiya va retseptura asoslari” fanlarini o‘qitish jarayoniga tatbiq etilgan.

“Texnikum-OTT” integratsiyalashgan ta’lim muhitida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan “Xalq tabobati” hamda “Farmakologiya va retseptura asoslari” fanlaridan o‘quvchilarni o‘zlashtirish darajalarini baholash materiallari ishlab chiqilgan va amalda foydalanilgan.

“Xalq tabobati” hamda “Farmakologiya va retseptura asoslari” fanlaridan amaliy ta’lim jarayonini kollaborativ ta’lim metodlari orqali tashkil etish metodikasi ishlab chiqilgan va amalga tatbiq etilgan.

Umumkasbiy va klinik fan o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirishga mo‘ljallangan “Tibbiy ta’lim muassasalarida pedagog kadrlarning kasbiy malakalarini rivojlantirish metodikasi” (O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi qoshidagi Intellektual mulk agentligining 2023-yil 23-dekabrda DGU 31842-raqamli guvohnomasi) hamda “Integratsiyalashgan ta’lim muhitida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish” (O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi qoshidagi Intellektual mulk agentligining 2024-yil 20-iyunda DGU 40424-raqamli guvohnomasi) elektron dasturi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiya ishi doirasida o‘quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bosqichlari bo‘yicha metodik tavsiyalar “Tibbiyotga oid fanlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish asoslari” nomli monografiya mazmuniga singdirilgan va o‘quv jarayoniga tatbiq etilgan.

“Texnikum-OTT” integratsiyalashgan ta’lim muhitida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan “Tibbiyot hamshirasini kasbiy madaniyatini shakllantirish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiq qilinayotgan hodisalarga nisbatan turlicha yondashuvlarning qo‘llanganligi, natijalarni tahlil qilishga yangi paradigmalarda nuqtayi nazaridan yondashilgani; tajriba-sinov ishtirokchilari tanlanmasining reprezentativligi; tadqiqotning nazariy-eksperimental bosqichidagi farazlarning statistik jihatdan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan metodika, model, umumkasbiy va klinik fanlardan o‘qitish materiallari, “Texnikum-OTT” integrativ ta’lim muhitini shakllantirish nazariyasi va metodikasi, tibbiy ta’limni tashkil etishni takomillashtirishning zamonaviy didaktik vositalari, ta’lim jarayonlarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish, o‘quv reja va dasturlarini mukammallashtirish, tibbiyot texnikumlarida bo‘lajak mutaxassislar tayyorlash jarayonini takomillashtirishda foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘quvchilarning tibbiy fanlari bo‘yicha o‘quv materiallarini va mavzularini yuqori darajada o‘zlashtirishga mo‘ljallangan metodika, o‘quv-metodik ta’minot, “Xalq tabobati”, “Farmakologiya va retseptura asoslari” fanlari bo‘yicha integratsiyalashgan

mashg'ulot ishlanmalari va undan foydalanish metodikasining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Integratsiyalashgan ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar asosida:

bo'lajak mutaxassislarni "Texnikum-OTT" integratsiyalashgan ta'lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlashda integrativ bilimlarni birlashtirishning empirik hamda nazariy darajalarini aniqlashga doir takliflardan Professional ta'limni rivojlantirish institutining IL-5821081323-raqamli "Dual ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashning innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish" (2023-2025-yy.) mavzusidagi innovatsion loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 30-yanvardagi 02/01-01-38-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif va tavsiyalar o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalarini oshirishga xizmat qilgan;

bo'lajak mutaxassislarni integratsiyalashgan ta'lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlash modelining kollaborativ texnologiyaga asoslangan "Texnikum-OTT" o'zaro hamkorligini muvofiqlashtiruvchi tashkiliy-funksional komponentlari (maqsad, mazmun, tashkiliy-texnologik, baholash, natija) mazmunini takomillashtirishga doir tavsiyalar "Tibbiyot hamshirasining kasbiy madaniyatini shakllantirish metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-martdagi 55384-sonli nashr ruxsatnomasi). Mazkur didaktik ta'minot o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlash sifatini oshirishga xizmat qilgan;

tibbiyot texnikumlarida "Farmakologiya va retseptura asoslari", "Xalq tabobati" fanlari bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni va shaxsiy sifatlarni uzluksiz rivojlantirishda uzluksiz kasbiy rivojlanishning an'anaviy va no'anaviy (pedagogik, evtagogik) usullarini qo'llash orqali integratsiyalashgan mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi "Tibbiy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning kasbiy malakalarini rivojlantirish metodikasi" nomli hamda "Integratsiyalashgan ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish" nomli elektron didaktik ta'minot mazmunida aks ettirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 30-yanvardagi 02/01-01-38-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur metodika bo'lajak hamshiralarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan, 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy-uslubiy ishlar e'lon qilingan bo'lib, shu jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 2 ta Xalqaro jurnallarda

chop etilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan 2 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob‘ekti va predmetlari belgilangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, amalda joriy etilishi, e‘lon qilingan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Integratsiyalashgan ta‘lim muhitida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tibbiyot yo‘nalishi o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda integratsiyalashgan ta‘lim muhiti mazmuni, bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda uzluksiz ta‘lim olish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari, **“Texnikum-OTT”** integratsiyasini o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirishdagi o‘rni professional ta‘limda tibbiyot yo‘nalishi o‘quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Bugungi kunda ta‘lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasi davlatimiz siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Ta‘lim tizimidagi barcha islohotlar barcha ta‘lim yo‘nalishlari kabi tibbiyot xodimlarini tayyorlash sohasiga ham aloqadordir. Xalq sog‘ligi mamlakatning rivojini ta‘minlab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu bois, mamlakatimiz hukumati tomonidan xalq salomatligini yaxshilash borasida qonunlar, maxsus dasturlar ishlab chiqilmoqda va ular amaliyotga izchil tatbiq etilmoqda. Islohotlardan ko‘zda tutilgan eng asosiy maqsad tibbiyot xodimlari va tibbiyot hamshiralarning bilim darajalarini oshirish, jahon andozalariga javob beradigan, raqobatbardosh, ruhan va jismonan sog‘lom yetuk kadrlarni tayyorlashdan iboratdir.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-avgustdagi **“Oliy, o‘rta maxsus va kasbiy ta‘lim tashkilotlari o‘rtasida ta‘lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviyligini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PQ-5241-sonli qarorida quyidagi vazifalar belgilandi:

oliy ta‘lim tashkilotlari o‘zlariga birlashtirilgan texnikumlarni o‘quv-metodik hujjatlar (o‘qitish materiallari to‘plamlari, didaktik materiallar, praktikumlar, texnologik xaritalar, elektron resurslar, xorijiy o‘quv, ilmiy va badiiy adabiyotlar, davriy nashrlar, lug‘atlar, ensiklopediyalar, axborotnomalar hamda boshqalar) bilan ta‘minlaydi. Yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarishda **“Texnikum-OTT”**

tizimida integratsiyalashgan ta'lim muhitini ta'minlash, o'zaro samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim sanaladi.

Ilmiy bilimlarni birlashtirish natijasi – yangi sifat, yaxlitlikka ega bo'lgan bilim tizimi ekanligi sababli fanda sodir bo'ladigan integratsiya jarayonlari ta'limda ham aks ettirilishi kerak. Shuningdek, pedagogik integratsiya ilmiy integratsiyaning didaktik ekvivalentiga aylanadi.

Pedagog olim N.A.Muslimovning ta'kidlashicha, integratsiya:

ma'lum bir tizimning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik holatini hamda shunday holatga olib boruvchi jarayonni ifodalaydigan tushuncha⁵.

O.Abduquddusov “integratsiyani (lotincha Integeration – tiklash, to'ldirish, birlashtirish. Integer – yaxlit) bir butun qilib birlashtirmoq, mantiqiy yaxlit holga keltirmoq”, “integratsiya – sintezning yuqori darajasi hisoblanadi”, – degan fikrni ilgari suradi. Bunda muallif integratsiyani sintez jarayonining yuqori darajasi deb tushuntiradi, ya'ni sintez jarayonida qism yoki elementlarning birlashishi (umumlashishi) vujudga keladi. Shu ma'noda integratsiya natijasida qism yoki elementlarning birlashishi nazarda tutilgan⁶.

R.X.Djurayev va E.O.Turdiqulov integratsiyani “tarqoq, bo'lak-bo'lak, ayrim-ayrim holdagi narsalarni bir butun, yaxlit, tizimlashgan holatga keltirishdir”, – deb ta'riflaganlar⁷.

Ta'limda integratsiya muammosiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil etish bizga “integratsiyalashgan muhit” tushunchasiga ishchi ta'rifimizni berishga imkon berdi.

Integratsiyalashgan muhit – bu integrativlik prinsipi asosida qurilgan maqsadli pedagogik jarayonning natijasidir, uning davomida o'quvchilar o'z onglarida turli xil o'quv fanlaridan o'zlashtirgan bilimlarining tarkibiy qismlarini aks ettirish asosida tibbiy bilimlarning yaxlit tizimini tashkil etuvchi maxsus, integral, kognitiv-operatsion tuzilmalarga aylantiradilar.

“Texnikum-OTT” integrativ jarayonni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

ta'lim mazmunini takomillashtirish, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bilan bog'liq ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish xamda moddiy texnik bazani rivojlantirish;

ilmiy-texnik taraqqiyotni iqtisodiy rivojlantirish uchun fanning oxirgi yutuqlari va erishgan natijalarida samarali foydalanish;

ta'lim mazmunini takomillashtirish, ya'ni ta'lim mazmuni (malaka talablari, integratsiyalashgan fan dasturlari va b.) ni ishlab chiqish yoki takomillashtirish;

o'quv-metodik materiallari (darslik, o'quv qo'llanma, metodik tavsiyanoma, namunalari va boshqa) ni yaratish;

⁵ Muslimov N.A. Innovatsion hamkorlik professional talim tizimida fan, talim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish omili: ilmiy qarashlar va finlandiya tajribasi. // “Professional ta'lim tizimida fan-ta'lim-ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish muammo va yechimlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2024. B. 11-12.


⁶ Abduquddusov O. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashga integrativ yondashuv. – T.: Fan, 2005. 157 b.

⁷ Turdiqulov E.O., Djuraev R.X. va boshqalar. Integratsiyalashgan ta'lim nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2009. 176 b.

texnikum o‘qituvchilari uchun, tibbiyot tashkilotlari xodimlari (shifoxona va poliklinikalar) uchun resurs (instruktaj, qo‘llanma va b.) lar ishlab chiqish.

Bizning fikrimizcha, tibbiyot texnikumlarida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligi jarayonida o‘qituvchilar innovatsion, interaktiv ta‘lim shakllari va loyiha ishlariga bo‘lgan talabni yuzaga keltiradigan noan‘anaviy ta‘lim berish formatini qulay, deb topmaydilar. “Texnikum-OTT” o‘zaro hamkorlik munosabatlari o‘qitish amaliyotida minimal vaqt va moddiy xarajatlar bilan amalga oshirish imkonini beradi.

Keltirilgan integratsiyalashgan ta‘lim muhiti tuzilmasidagi o‘zaro hamkorlik munosabatlarida texnikum va oliy ta‘lim tashkilotlarining ishtirokini ifodalash mumkin (1-rasm).



1-rasm. “Texnikum-OTT” integratsiyalashgan ta‘lim muhiti tuzilmasi

Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ta‘lim jarayonini tashkil etish va boshqarishda – OTTdagi professor o‘qituvchilar bilan hamda tibbiyot sohasidagi yetuk mutaxassislari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni uyushtirish; mahorat darslari o‘tkazish va o‘qituvchi sifatida ta‘lim jarayoniga jalb etish; binar darslar; kollaborativ ta‘lim; dual ta‘lim; ustoz-shogird; ta‘lim jarayonini tashkiliy va boshqaruv jarayonini nazorat qilish; tyutor sifatida (mustaqil ta‘limda, loyiha ishlari, muammoli ta‘lim va boshqalarni tashkil etishda); ekspert baholashda (oraliq, joriy va yakuniy

nazoratlar, loyiha ishlarini baholash) ishtirok etish; professor-o‘qituvchilar mahoratini va kasbiy-shaxsiy sifatlarini baholashni hamkorlikda amalga oshirish mumkin.

Tibbiyot texnikumlarida mutaxassislarning integratsiyalashgan ta’lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorligini belgilovchi omillardan biri – uzluksiz kasbiy rivojlanish, uzluksiz ta’lim olishga motivatsiyani shakllantirishdir. Axborotlashgan jamiyatda, raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida uzluksiz ta’lim olish imkoniyatini rivojlangan davlatlar amaliyotida o‘zini oqlagan qo‘shimcha ta’lim yoki to‘ldiruvchi ta’lim (evtagogika) orqali ta’minlash mumkin.

Tibbiy ta’limda evtagogikaning ahamiyati juda katta, sababi tibbiy bilimlarni faqatgina auditoriya mashg‘ulotlarida egallashning imkoni yo‘q. Tibbiy bilimlarni mustahkamlashga tajriba va mustaqil ta’lim zarur. Shu sababli evtagogik yondashuv bilan o‘quv jarayoni diqqatni bilim olishdan ularni tahlil qilishga o‘tkazadi. Bu o‘quvchilar uchun juda muhim mahoratdir, chunki ular bilimlarni boshqarishda unga kirishdan ko‘ra qimmatroq bo‘lgan dunyo bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishadi. Ushbu o‘quv uslubida ta’lim oluvchilar muammo va uni hal qilish uchun qilgan harakatlari haqida chuqur fikr yuritadilar, shuningdek, muammoni hal qilish jarayonining o‘zi haqida fikr yuritadilar. G‘oya shundan iboratki, o‘quvchilar o‘zlariga qanday bilimlar kerakligini o‘zlari belgilashadi va mustaqil o‘rganishadi.

Tibbiy ta’limga evtagogikani qo‘llashda o‘quvchilar muammolarni mustaqil aniqlaydilar va mustaqil ravishda yechim topadilar. Ta’lim oluvchilar pedagog tomonidan qo‘yilgan vazifalarga e’tibor qaratish o‘rniga, noaniqlik va murakkablik bilan ajralib turadigan mavzularni afzal ko‘radilar. Pedagogning vazifasi – shunchaki ta’lim jarayonini takomillashtirish va osonlashtirish uchun sharoit yaratishdir.

Dissertatsiyaning **“Integratsiyalashgan ta’lim muhitida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida tibbiy ta’limda nazariya va amaliyot tendensiyasini yanada rivojlantirishda ta’limning integrativ tashkiliy funksiyasi, yondashuvlari, integratsiyalashgan ta’lim muhitida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli, bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda integratsiyalashgan mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi yoritib berilgan.

Zamonaviy sharoitda integrativ jarayonlar jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Nazariy va amaliy malakalar integratsiyasini amalga oshirish usullari taqdim etilmoqda. Integrativ yondashuvda faol usullar va shakllar amalga oshiriladi, optimal o‘qitish vositalaridan foydalaniladi, bilim va ishlarni bajarish usullari birlashtiriladi. Integratsiya resurslarni almashish va bir-birlari uchun qulay sharoitlarni yaratish imkonini beradi. Tibbiyot tashkilotlari va ta’lim tashkilotlarining to‘liq integratsiyasiga erishgan holda, potensial ish beruvchi tomonidan ularga qo‘yiladigan talablarni hisobga olgan holda mutaxassislarni

tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlari va texnologiyalarini qo'llash mumkin bo'ladi⁸.

Integratsiya natijasida ta'lim tashkilotlarining maxsus fan o'qituvchilari hamkor muassasalar va tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan ustozlar bilan hamkorlik imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada maxsus fan o'qituvchilarining amaliy ish tajribasi hamda hamkor muassasadan biriktirilgan ustozning metodik kompetentliligi oshadi, bu esa, o'z navbatida, kasbiy ta'lim sifatining oshishiga olib keladi, ya'ni o'quvchilarning nazariy bilimlari amaliyotda mustahkamlanadi. Shuningdek, kasbiy ta'limning hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari tahlili shuni ko'rsatadiki, mutaxassislar tayyorlash sifati ko'p jihatdan o'qituvchilar faoliyati samaradorligiga bog'liq. Demak, yuqori malakali professional kadrlarni nafaqat yuqori nazariy tayyorgarlik darajasiga ega o'qituvchilar, balki boshqa ta'lim tashkilotida amaliy tajribaga ega bo'lgan ustozlar hamkorligida tayyorlanishi muammosi dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy uslubiy pozitsiyalariga asoslanib, biz tibbiyot texnikumlarida mutaxassislarni integratsiyalashgan ta'lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlash modelini ishlab chiqdik.

Umumiy pedagogik ma'noda o'rganilayotgan model tibbiy faoliyatning integrativ xususiyatini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etish usullari va shakllarining mazmunini optimallashtirish asosida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan. Model tibbiyot texnikumi o'quvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda integratsiyalashgan muhit, integral bilimlarni shakllantirishning mohiyati, mazmuni va tuzilishini aks ettiruvchi tarkibiy qismlar, pedagogik sharoitlar, mezonlar mazmunini ochib beradi. Model o'quv jarayonida maqsadli, mazmunli, tashkiliy, texnologik, protsessual-faoliyat, nazorat bloklar majmuasidan iborat bo'lib, mazkur modeldan foydalanish belgilangan pedagogik maqsadga erishishga yordam beradi.

Biz modelning barcha bloklarini o'zaro aloqadorligini ta'minlashga harakat qildik. Biz tomonimizdan takomillashtirilgan model bloklarini yoritib berishga harakat qilamiz (2-rasm).

Ta'limning mazmuni uning maqsadi bilan belgilanadi. Ta'limning maqsadi va mazmuni o'quv jarayonini rag'batlantirish hamda tashkil etishning muayyan usullari, vositalari va shakllarini talab qiladi.

Ushbu modelning amaliyotga joriy qilishning asosiy sharti o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikdagi yoki kollaborativ texnologiyaga asoslangan faoliyatidir.

Maqsadli blok tibbiyot texnikumi o'quvchilarida kasbiy faoliyatga tayyorgarlikni ta'minlashdagi kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida amalga oshiriladigan maqsad, vazifalar, yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Ushbu blok juda muhimdir, chunki model – yakuniy natijaning bashoratli tavsifi sifatida o'quv jarayonining boshlang'ich nuqtasidir. Ushbu modelda maqsad tibbiyot texnikumlarida bo'lajak mutaxassisini tayyorlash uchun ijtimoiy buyurtma va

⁸ Бардина Е.В. Особенности интеграции образования и производства при подготовке студентов технических специальностей". // Профобразование. Международное интернет издание. / Мурожаат sanasi: 20.10.2024.

kasbiy ta'limning malaka talablarining o'rta tibbiyot mutaxassislarini tayyorlashga qo'yiladigan kompetensiyaviy talablari bilan belgilanadi. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan modelning asosiy maqsadi integratsiyalashgan ta'lim muhitida muammoli vaziyatlarda samarali harakat qilishga tayyor bo'lgan malakali o'rta tibbiy xodim – hamshirani tayyorlashdan iborat.

Mazmun bloki shaxsning intellektual va kasbiy rivojlanishiga yo'naltirilgan. Mazkur blok "Xalq tabobati" hamda "Farmakologiya va retseptura asoslari" fanining malaka talablarida ko'rsatilgan umumiy va kasbiy kompetensiyalar hamda o'quv reja va o'quv dasturlari mazmunini o'z ichiga oladi.

Tashkiliy blok o'quv jarayonining tashkiliy komponentining tuzilishini, pedagogik shart-sharoitlarini, integratsiyalashgan mashg'ulot turini aks ettiradi. "Xalq tabobati" hamda "Farmakologiya va retseptura asoslari" fanlarini o'qitishning tashkiliy shakllari nazariy (ma'ruzalar va seminarlar), amaliy darslarni o'z ichiga oladi. Biz ma'ruzalar materialini fanlar o'rtasidagi tematik integratsiya aloqalarini hisobga olgan holda ishlab chiqdik. Mazkur fanlardan o'qitish materiallarini ishlab chiqishda an'anaviy ma'ruzalardan tashqari, biz bilimlarni birlashtirishga imkon beradigan ma'ruza materiallarini taqdim etishning turli shakllari: muammoli ma'ruza, video ma'ruza, ma'ruza-konferensiyadan foydalanamiz.


Texnologik blok o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik o'zaro ta'sir jarayonini aks ettiradi va "Xalq tabobati" hamda "Farmakologiya va retseptura asoslari" fanlarini o'rganish jarayonida kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining barqaror, izchil xususiyatini belgilaydi.

"Texnikum-OTT" tizimi o'qitish texnologiyalaridan foydalanish bilan yuzaga chiqariladi. Zamonaviy didaktika rivojlanishining ko'plab yo'nalishlari orasidan biz o'qitishning quyidagi shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalaridan foydalandik:

- hamkorlikda o'qitish;
- kollaborativ texnologiyalar;
- loyihalar metodi;
- muammoli o'qitish.

Bizning tanlovimiz shu bilan izohlanadiki, bunda mazkur metodlar texnikumda klinik fanlarni o'qitishning kasbiy-yo'naltirilgan mazmuni bilan yaxshi uyg'unlashadi. Ular malaka talablarida belgilangan ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlaydi. Ko'rsatib o'tilgan barcha texnologiyalar o'zaro bir-biri bilan bog'langan va shaxsga yo'naltirilganlik xususiyatiga egadir. Shaxsga yo'naltirilgan tahsil o'z mohiyatiga ko'ra o'qitishning differensiyalashuvi, o'quvchi shaxsiga, uning shaxs sifatida intellektual va ma'naviy rivojlanishiga qaratilganlik zaruratini ko'zda tutib, bu tibbiy ta'lim uchun o'ta dolzarbdir.

Nazorat bloki o'qituvchi tomonidan berilgan o'quv vazifalarini hal qilish jarayonini va olingan javoblarning aniqligi uchun o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarishini nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu blok o'quv jarayonini monitoring qilish vositalari va usullari to'plami (kasbiy bilimlarni shakllantirishni nazorat qilish) bo'lib, haqiqiy natijani aniqlash imkonini beradi.



2-rasm. Integratsiyalashgan ta'lim muhitida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli

Baholash bloki o'qituvchi tomonidan berilgan mezonlarga muvofiq o'quv jarayonida erishilgan natijalarni baholash va o'quvchilar tomonidan o'z-o'zini baholashni o'z ichiga oladi, fikr-mulohazalarni taqdim etadi va olingan natijaning maqsadga muvofiqligini tekshirish vositalari va usullari to'plami vazifasini bajaradi. Ushbu blok kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini boshqarish, olingan natijalarning prognoz qilingan natijalardan og'ish sabablarini aniqlash, aniqlangan bilim bo'shliqlarini to'ldirish zarurligini hisobga olgan holda yangi vazifalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Natijaviy blok tibbiyot texnikumi o'quvchilarida kasbiy bilimlarning shakllanishini aks ettiradi hamda kasbiy faoliyatga tayyor mutaxassisni nazarda tutadi.


Ta'lim tashkilotlarida integratsiya alohida fanlarni bir darsda ikki yoki undan ortiq o'qituvchilar yordamida birlashtirish ma'nosida ko'rib chiqiladi. Bunday mashg'ulotlar turli manbalarda turlicha nomlanadi: binar ma'ruzalar, fanlararo darslar, integrallashgan mashg'ulot. "Binar ma'ruza – ikki o'qituvchi o'rtasidagi dialog shaklidagi ma'ruza turidir. Tibbiyot texnikumlarida klinik fanlarni o'rganishda integratsiyalashgan mashg'ulotlardan foydalanish nafaqat o'quvchilarning bilim faolligini faollashtirishga imkon beradi, balki ularga ikki, bir qarashda, turli xil fanlar o'rtasidagi fanlararo aloqalarni ko'rishga yordam beradi, shuningdek, ularga kelajakdagi kasbi haqida aniqroq tasavvur beradi.

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash va ularning kompetensiyalarini oshirish uchun Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutiga birlashtirilgan tibbiyot texnikumlari bilan samarali hamkorlik aloqalari o'rnatildi. Xususan, integratsiyalashgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, o'zaro tajriba almashinish, baholash jarayonlarida ishtirok etish, o'quv reja va dasturlar mazmunini hamkorlikda takomillashtirish yo'lga qo'yildi.

Integrallashgan mashg'ulot har qanday shaklda, xoh ma'ruza, xoh seminar bo'lsin, yaxlit ta'lim jarayonida o'quv faoliyatida munosib o'rin egallashi mumkin. Integratsiyalashgan mashg'ulotda kompetensiyalar, bilimlar, ko'nikmalar samarali shakllanadi, ammo qo'shimcha ravishda integratsiyalashgan mashg'ulot o'zining noan'anaviyligi bilan o'quvchilar yodida qoladi. Tibbiyot texnikumlarida klinik fanlarni o'rganishda integratsiyalashgan mashg'ulotlardan foydalanish nafaqat o'quvchilarning bilim faolligini faollashtirishga imkon beradi, balki ularga ikki, bir qarashda, turli xil fanlar o'rtasidagi fanlararo aloqalarni ko'rishga yordam beradi, shuningdek, ularga kelajakdagi kasbi haqida aniqroq tasavvur beradi. Integratsiyalashgan mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasini ishlab chiqishda "Xalq tabobati" va "Farmakologiya va retseptura asoslari" fanlaridan "Hazm a'zolari ta'sir qiladigan vositalar" mavzusi hamda "Hind-Tibet tabobati" mavzularini integratsiyalashgan shaklda o'qitish tuzilmasi ishlab chiqildi (3-rasm).

